

ATOIY G‘AZALLARI MATNIDAGI ARABIY LEKSIK BIRLIKLARNING BADIY VAZIFASI

Xudayberganona Iroda Abdusattarovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Atoiy g‘azallarida ifodalangan arabiy so‘z va leksik birliklar bilan bog‘liq majoz, tashbeh, istiora, tajnis, iqtibos kabi badiiy usul va san‘atlar bayon qilingan. Shoir g‘azallariga xos badiiylik misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Atoiy, g‘azallar, leksik birliklar, badiiy mahorat, badiiy usul, badiiy san‘at, majoz, tashbeh, istiora, iqtibos.

So‘zni tinglovchiga ta’sirchan tarzda va bir marotaba eshitgandayoq yuragiga yetib boradigan holda yetkazib bera olish insondan badiiy mahoratni talab etadi. Albatta, bu jarayon tilning boshqa uslubiy nutqlariga qaraganda badiiy nutqiga xosdir. Tildagi bunday yondashuv badiiy adabiyot va ayniqsa, she’riyatda o‘z aksini topadi.

Nutqda ta’sirchanlikka erishishga oid talablar balog‘at ilmining bayon bo‘limiga kiruvchi tashbeh, majoz, kinoya kabi san‘atlar orqali amalga oshiriladi. Mumtoz asarlarda bunday san‘atlarni juda mohirona qo‘llaganlar. Adiblar so‘zni dur va gavharga o‘xshatganlar va suiste‘mol qilmaslik uchun unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lganlar. Har bir so‘zni o‘z o‘rnida, go‘yo ulardan marvarid shodalari tuzgandek, mohirona qo‘llaganlar.¹

O‘zbek mumtoz shoiri Atoiy ham ijodida badiiy san‘atlardan keng foydalangan. Uning g‘azallarida majoz, tashbeh, istiora usullari va tajnis va iqtibos san‘atlari ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Shoir g‘azallarida ifodalangan arabiy (diniy) leksik birliklar bilan bo‘liq quyidagi badiiy usul va san‘atlar tahlil qilindi:

1) Arabiy leksemaning ma’juz sifatida ifoda topishi

حق *Haq* – *Haq* [*a. حق* – to‘g‘ri, rost, chin, haqqoniy; huquq; adolat; *ma’j.* Xudo; *din.* Xudoning sifatlaridan biri].² Arabcha-o‘zbekcha lug‘atlarda haq so‘zining turli lug‘aviy ma’nolari keltirilgan: “1) haqiqiy, chinakam; to‘g‘ri, adolatli; 2) haq, huquq; adolat, odillik, to‘g‘rilik, haqiqat; majburiyat; 3) o‘lim”.³ Mazkur sifatlarning aksari Allohning sifatiga xos bo‘lganligi bois diniy adabiyotlarda majoziy ma’noda “*Haq*” leksemasi Allohning Zotiga nisbatan ifodalanadi. Atoiy ijodida ham “*Haq*” leksemasi bir necha baytlarida qo‘llangan:

¹ Rustamiy S. Balog‘at ilmi. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 19

² Мирзаев Т. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 518

³ Носиров О. ва бошқалар. Ан-на’им-ул-кабир. Арабча ўзбекча луғат. – Наманган: Наманган, 2014. – Б. 150

هر نيچه كيم جور و جفا قيلدينگ منگا بو دنيادا
محشردا لطف و مرحمت حق دان عطا بولسون سنگا
*Har nechakim javri jafo qilding mango bu dunyoda,
Mahsharda lutfu marhamat Haqdin ato bo 'lsun sanga.*⁴

Mazkur baytda “haq” leksemasi o‘z ma‘nosida emas, Allohning Zotiga nisbatan ifodalangan. Ya‘ni bu o‘rinda shoir mazojdan fo‘ydalangan. Balog‘at ilmi bayon bo‘limida majozga shunday ta‘rif beriladi: “Asl ma‘nosidan ko‘chib, o‘ziga mos keladigan boshqa narsaning ma‘nosini bildirish uchun qo‘llanadigan lafz majoz deb ataladi. Sodda qilib aytganda, “iste‘molda ma‘nosi o‘zgaradigan lafzlar majoz deyiladi”. Masalan: “الأسد” (she‘r) lafzining shijoatli kishiga nisbatan qo‘llanishi.⁵ Yuqoridagi baytda ko‘rsatilganidek, “haq” leksemasi Alloh Zotiga nisbatan qo‘llanilgan.

2) Qur‘oni karimda zikr qilingan payg‘ambarlar ismlari bilan bog‘liq tashbeh va istioira usullari:

Balog‘at ilmida tashbehga bir narsani boshqasiga o‘xshatish deb ta‘rif berilgan.⁶ Badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladigan usul (san‘at)lardan biridir. Olimlar tashbehni martabalariga ko‘ra uch guruhga ajratganlar. Tashbehning kuchli yoki zaifligida ruknlarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega.⁷

Arab balog‘atida istioira bayon ilmida o‘rganiluvchi majozning tarkibida keladi. Lug‘aviy ma‘nosi – “qarzga olingan”. Jurjoniy va Sakkokiy uni shunday ta‘riflagan: tashbehning ikki tarafi (mushabbah va mushabbah bihi)dan biri zikr qilinadi, boshqa tarafi nazarda tutiladi. Bunda mushabbah bihi (o‘xshovchi)ga xos bo‘lgan narsani mushabbah (o‘xshatiluvchi)ga tegishli qilish orqali mushabbah mushabbah bihining jinsi (turi)ga kirishi da‘vo qilinadi.⁸

Alibeg Rustamov tomonidan istioira haqida shunday deyilgan: “arslon” yoki “sher” so‘zini so‘zlovchi arslonga o‘xshagan shijoatli va mardona yigitga nisbatan ishlatsa, bu istioira bo‘ladi⁹

سنگا بېرسون الهي نوح عمرين
منگا هم فرقاتنگدا صبر ايوب
*Sanga bersun ilohi Nuh umrin,
Manga ham furqatingda sabri Ayyub.*¹⁰

Mazkur baytning birinchi misrasida Atoiy istiorani qo‘llagan. Shoir bu yerda “Alloh senga Nuh (a.s.) ning uzun umrlaridek uzoq umrni bersin” degan ma‘noni nazarda tutgan. Ikkinchu misrada Ayyub (a.s.) ning sabrlari kabi sabr berilishini Allohdan so‘rab iltijo qilgan. Bunda tashbeh san‘ati ifodalangan.

⁴ Сайфиддин Сайфуллох. Девони шайхзода Атойи. – Т.: Фан, 2008. – Б. 29

⁵ O‘sha joyda

⁶ Qarang: Rustamiy S. Balog‘at ilmi. T.: Zilol buloq, 2021. – B. 67

⁷ O‘sha joyda

⁸ Rustamiy S. Balog‘at ilmi. T.: Zilol buloq, 2021. – B. 67

⁹ Qarang: Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т.: Extremum press, 2010. – Б. 32

¹⁰ O‘sha manba: – B. 38

Atoiy o‘z g‘azallarida tajnis san‘atidan ham unumli foydalangan.

Tajnis arab balog‘at ilmida badi‘ san‘atlarning lafziy turiga mansubdir.¹¹ Tovushdoshlikni talab qiluvchi san‘atlardan biri hisoblanadi. الجناس (jinos) san‘ati deb ham yuritiladi. “Jinos”ning lug‘aviy ma‘nosi jinsdoshlikdir. Uning istilohdagi ta‘rifi quyidagicha: “Badi‘ ilmida talaffuzda o‘xshash bo‘lib, ma‘no jihatdan farq qiladigan ikki so‘z jinosni tashkil qiladi, ya‘ni bu tushunchaga “paronim va omonimlarga asoslangan badiiy tasvir vositalari mujassamlashgan”.¹²

3) Atoiy g‘azallarida arabiy leksemalar bilan bog‘liq tajnis san‘atining ifodalanishi:

كیل ای صنم که بولدی ینا نوبهارو عید
کیم خوشتورور کیشی گا وصال و نگارو عید

Kel, ey sanam, ki bo‘ldi yana navbahoru iyd

*Kim, xushturur kishiga visoli nigoru iyd.*¹³

Mazkur misralardagi *iyd* عید leksemasi tajnis san‘atidir. “*Iyd*” har ikki misrada kelgan bo‘lsa-da, birinchi misrada – kun, ikkinchi misrada – bayram ma‘nosini ifodalagan.

4) Iqtibos san‘atining qo‘llanishi.

Atoiyning g‘azallarida shoirning Qur‘oni karim va hadislardan iqtiboslar keltirishi kuzatildi. “Atoiy ba‘zan baytlarida Qur‘ondagi oyatlardan iboralar qo‘llaydi. Lekin bu iboralar shunday mahorat bilan istifoda etiladiki, birinchi galda bevosita o‘sha oyatning ma‘nosi yodimizga tushadi. Ikkinchidan, bu iboralar misralardagi obraz, fikr va g‘oyalarning mukammalligini ta‘minlovchi so‘zlar kabi qo‘llanadi. Aniqrog‘i, Qur‘oniy iboralarning sof lug‘aviy mazmuni xos ma‘no tashiydi”.¹⁴ Shoir o‘z misralariga Qur‘on oyatlari va hadislarda keltirilgan voqealarni ibora yoki hodisa bayoni sifatida, ba‘zan ularga ishora qilgan holda mohirona ko‘chirgan.

O‘rta asrlarda mumtoz adabiyot namunalarida islom dinining muqaddas kitobi Qur‘on oyatlari hamda payg‘ambar (s.a.v.) hadislaridan parchalar, namunalarni asar tarkibiga kiritib, ma‘no kuchaytirish asar tilini bezash keng an‘ana bo‘lgan.¹⁵

Balog‘at ilmida ham iqtibos san‘ati haqida turli ma‘lumotlar keltirilgan hamda balog‘at olimlari iqtibosga turli ta‘rif berganlar. Masalan, “Iqtibos nasr yoki she‘rda Qur‘oni Karim yoki hadisi sharifdan biror narsaning qayerdan olingani ko‘rsatilmagan holda keltirilishidir. U bir oz o‘zgartirilgan bo‘lishi mumkin”, - deyiladi.¹⁶

“*Rohmatan lilolamin*”, “*qoba qavsayn*”, “*ahsani taqvim*”, “*limanil mulk?*”, “*hablul varid*”, “*hal min mazid*”, “*jannatul ma‘vo*”, “*qolu bala*” kabi arabiy leksik birliklar, “*Arsh*”, “*Kursi*”, “*Qalam*” leksemalari “*Yosin*”, “*Qalam*”, “*Nur*”, “*Layl*”,

¹¹ Rustamiy S. Balog‘at ilmi. T.: Zilol buloq, 2021. – B. 10

¹² Qarang: O‘sha manba: – B. 99-100

¹³ Сайфиддин Сайфуллох. Девони шайхзода Атоийи. – Т.: Фан, 2008. – Б. 51

¹⁴ Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Т., 1995. – Б. 58

¹⁵ Сагдуллаева Д.К. “Қиссаси Рабғузий” асаридаги арабий жумла ва ўзлашмаларнинг структур-семантик тадқиқи. Фил. фан. док. ... дис. – Т., 2021. – Б. 28

¹⁶ Qarang: Rustamiy S. Balog‘at ilmi. T.: Zilol buloq, 2021. – B. 122

“Shams”, “Sod” suralarining nomlariga ishoralar, Qur’oni karimda zikri kelgan payg‘ambar nomlari¹⁷ va ular bilan bog‘liq voqea-hodisalar yoki ularga taalluqli bo‘lgan jihatlar Atoiy g‘azallariga iqtibos san’ati sifatida ifoda topgan. Masalan:

bayt: بلي سين رحمة للعالمين سين
كه قيلدينگ ظاهرو باطني اصلاح

*Bali, sen “rohmatan lilolamin” sen,
Ki qilding zohiru botinni isloh.*¹⁸

Mazkur baytdagi iqtibos “rahmatan lil olamin” dir. Bu ibora “hazrat payg‘ambarimizning “olamlarga rahmat” bo‘lib yuborilganlik sifati.¹⁹ Qur’oni karimning Anbiyo surasi 107-oyatida shunday deyilgan: وَمَا أَرْسَلْنَاكَ إِلَّا رَحْمَةً لِّلْعَالَمِينَ (Ey Muhammad!), Biz sizni (butun) olamlarga ayni rahmat qilib yuborganmiz”.²⁰ Mazkur baytda Atoiy qur‘ondan iqtibos ko‘chirish bilan bir qatorda Muhammad (s.a.v.) ning boshqa sifatlarini ham aytib o‘tgan va misralardagi ma‘nolar uzviy bog‘lanib ketgan. Shu sabab yuqorida keltirilgan baytdagi “rahmatan lil olamin” asl ma‘nosi saqlangan iqtibos hisoblanadi.

bayt: پرده دين چيق بير دم اي خوبلار سپهرينده قوياش
احسن و تقويم سرين ايلا بو عالم دا فاش

*Pardadin chiq, bir dam ey xo‘blar sipehrinda quyosh,
“Ahsani taqvim” sirrin ayla bu olamda fosh.*²¹

“Ahsani taqvim” أحسن (eng yaxshi, eng go‘zal, eng chiroyli²²) va تقويم (shakl, surat, qiyofa, qomat²³) ma‘nolarini bildiradi. Ya’ni “eng go‘zal surat” ma‘nolarini bildirib, Qur’oni karimning Tin surasidagi 4-oyatga ishora: لَقَدْ خَلَقْنَا الْإِنْسَانَ فِي أَحْسَن تَقْوِيمٍ “Haqiqatan, Biz insonni xushbichim va xushsurat (shaklda) yaratdik”.²⁴

bayt: سليمان ملكي دور هم نوح عمري
سنينگ بيرله كيچورگان بير زمانيم

*Sulaymon mulkidur ham Nuh umri,
Saning birla kechurgan bir zamonim.*²⁵

Quro‘ni karim va hadislarda kelgan ma‘lumotlarga ko‘ra Sulaymon payg‘ambarga boshqalarga berilmagan mulku-davlat berilganligi qayd etilgan. Bu haqda Naml, Sab‘a, Sad suralarida batafsil bayon etilgan. Masalan: وَوَرِثَ سُلَيْمَانُ دَاوُودَ وَقَالَ يَا أَيُّهَا النَّاسُ عَلِمْنَا مَنطِقَ الطَّيْرِ وَأُوتِينَا مِنْ كُلِّ شَيْءٍ إِنَّ هَذَا لَهُوَ الْفَضْلُ الْمُبِينُ “Sulaymon (payg‘ambarlik va podshohlikda)

¹⁷ Talmeh san’ati

¹⁸ Сайфиддин Сайфуллох, Девони шайхзода Атоий. – Т.: Фан, 2008. – Б. 49

¹⁹ O‘sha manba: – В. 292

²⁰ Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: Гафур Фулом, 2019. – Б. 331

²¹ O‘sha manba: – В. 110

²² Носиров О. ва бошқалар. Ан-на‘им-ул-кабир. Арабча ўзбекча луғат. –Н.: Наманган, 2014. – Б. 141

²³ O‘sha manba: – В. 579

²⁴ Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: Гафур Фулом, 2019. – Б. 597

²⁵ Сайфиддин Сайфуллох, Девони шайхзода Атоий. – Т.: Фан, 2008. – Б. 144

Dovudga voris bo'ldi va aytdi: "Ey odamlar! Bizga qushlar tili bildirildi. Albatta, bu aniq fazldir" (Naml surasi 16-oyat).²⁶

Nuh payg'ambarga uzun umr berilganligi Ankabut surasining 14-oyatida naql qilingan: *وَلَقَدْ أَرْسَلْنَا نُوحًا إِلَىٰ قَوْمِهِ فَلَبِثَ فِيهِمْ أَلْفَ سَنَةٍ إِلَّا خَمْسِينَ عَامًا فَأَخَذَهُمُ الطُّوفَانُ وَهُمْ ظَالِمُونَ* "Biz Nuhni o'z qavmiga (payg'ambar qilib) yubordik. Bas, u ularning orasida ellik yili kam ming yil turdi. Bas, ularni zolim (kofir) bo'lgan hollarida to'fon (balosi)tutdi".²⁷ Mazkur oyatdan Nuh (a.s.) 950 yil umr ko'rganlari ma'lum bo'ladi.

Atoiy g'azallarida majoz, tashbeh, istiora, tajnis, iqtibos kabi usul va san'atlar talaygina.²⁸ Shoir o'z ijodida ulardan keng foydalangan, o'z ijodini badiiy usul va san'atlar orqali boyitgan.

Qur'on va hadislardan olgan iqtibosi uning misra va baytlaridagi ma'nolarni ochib bergan, g'azallardagi mazmunni boyitishga xizmat qilgan. Shoirning fikri iqtibos orqali g'azallarga ko'chgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustamiy S. Balog'at ilmi. – T.: Zilol buloq, 2021.
2. Мирзаев Т. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдди. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.
3. Носиров О. ва бошқалар. Ан-на'им-ул-кабир. Арабча ўзбекча луғат. – Н.: Наманган, 2014
4. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Т., 1995.
5. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т.: Extremum press, 2010.
6. Сагдуллаева Д.К. "Қиссаси Рабғузий" асаридаги арабий жумла ва ўзлашмаларнинг структур-семантик тадқиқи. Фил. фан. док. ... дис. – Т., 2021.
7. Сайфиддин Сайфуллоҳ. Девони шайхзода Атойи. – Т.: Фан, 2008.
8. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: Фафур Фулом, 2019. .

²⁶ Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: Фафур Фулом, 2019. – Б. 378

²⁷ O'sha manba: – B. 397

²⁸ Bu masalalar Rafiddinov S.S. tomonidan "Atoiyning poetik mahorati" tadqiqot ishida adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.